

ERKIN A'ZAMNING "SHOIRNING TO'YI" QISSASIDA INSON FOJIASI

Umida Eshquvatova

Nizomiy nomidagi TDPU talabasi

mahbuba88@bk.ru

***Annotatsiya:** Maqolada keyingi yillarning iste'dodli yozuvchilaridan biri Erkin A'zam qalamiga mansub "Shoirning to'yi" qissasi tahlil qilindi. Qissa qahramonlari xarakteri va psixologiyasini tasvirlashdagi kinoyaning o'rni, yozuvchi shoir Otashqalb obrazi yordamida sho'ro davri fojialari ochib berilgan.*

***Аннотация:** В статье был проанализирован рассказ "свадьба поэта", написанный одним из талантливейших писателей последующих лет Эркином Азамом. Роль иронии в изображении характера и психологии героев повести раскрывается с помощью образа писателя-поэта огнедышащего.*

***Annotation:** the article analyzed the story "The Poet's wedding", which belongs to the pen of one of the talented writers of the following years free organ. The role of irony in the description of the character and psychology of the heroes of the story, the tragedies of the silent era are revealed with the help of the image of the writer poet Hitchhiker.*

***Kalit so'zlar:** Davr, fojia, mafkura, kinoya, xarakter, obraz, Otashqalb, Mafkuraxonim, qissa, voqea, tahlil.*

Kirish: Erkin A'zam asarlarining o'ziga xos va ajralib turuvchi jihati shundaki, adib asarlarida kinoya tilining ustalik bilan ishlatilishi, asar kulminatsiyasi kutilmagan qahramon va kutilmagan badiiy yechimlarga ega ekanligi hisoblanadi. Yozuvchi inson tabiatiga xos bo'lgan chigalliklarni ochiq ko'rsatmasdan imo-ishora orqali aks ettirishi uning asarlarining tasirchanligini oshiradi.

Yozuvchi qahramon xarakterini yaratishda, asar syujetining xarakterlar asosiga qurilishi, voqealar o'rtasidagi bog'liqliklarni obrazlar, detallar yordamida ifodalashi, muallif va qahramon nutqining yaqinligiga alohida e'tibor beradi. Erkin A'zam o'z asarlarida qahramonlar xakteri va psixologiyasini tasvirlashda, tasvir va ifoda yo'sinining hayotda ko'rish mumkin bo'lgan jihatlarini kinoya ostida "kosa tagida nimkosa" shaklida ifodalaydi. Bu jihatdan "Shoirning to'yi" qissasidagi personajlar xakteri alohida ajralib turadi. Qissa syujetini qatag'onga uchragan va keyinchalik vaqt o'tib oqlangan shoir xotirasiga bag'ishlangan xotira kechasi va o'sha kechada qatnashuvchi ijobiy va salbiy xakterlarga ega bo'lgan qahramonlar tashkil qiladi. Asarning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlaridan yana biri asar qahramonlariga ism qo'yilishi ham diqqatni jalb etadi. Ismlarda ham yuqorida aytilgan kinoya uslubi yaqqol sezilib turadi.

Qissadagi

voqealar hamma hodisa va lavhalar bosh qahramon Otashqalb shoirning butun hayoti atrofida birlashadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi: Yozuvchining mazkur qissasi adabiyotshunoslar tomanidan bir qancha bahslarga sabab bo'lgan. Xususan, Feruza Rajabovaning "Achchiq qismatli shaxs fojeasi" nomli maqolasida Erkin A'zam Otashqalb shoir obrazi orqali ko'proq Usmon Nosir va Cho'lpon shaxsiga murojaat qilingan deyiladi. Bu o'xshashlik Usmon Nosir shaxsiyati, harakat intilishlari doirasida, Cho'lponning esa ijodi, muayyan asarlariga munosabat aspektida ko'proq aks etgan deya izohlaydi. Ammo asarda aynan ikki shaxs fojeasini emas 1930-1950-yillar oralig'ida qatag'onga uchragan butun o'zbek shoir va yozuvchilarining qismatini uchratish mumkin.

Natijalar: Qissa tadbir o'tkazilayotgan binoning qurilishi unda qatnashayotgan asirlar –harbiylar, siyosat qurbonlari, jinoyatchilar yoxud o'zinikimi, begonami farqi yo'q "aybi bor" mahbuslar. Aybdor sho'rlik o'lib tirilib ishlaydi, shunga majbur. Mehnat bilan gunohni yuvmoqni o'ylamasada, mahkumlikni, mahrumlik uqubatlarini shu yo'sin yengmoq bo'ladi. Bunga "Mo'ylovdor dohiy"ning tamal toshini qo'yib berish bilan boshlanadi va asar boshlanmasidanoq tushkin ruhiyat seziladi. Qissada

davr va shaxs fojiasi bir- biriga qarama –qarshi qo‘yiladi. Otashqalb shoir shaxs fojiasi bo‘lsa, Oqsaqol shoir, Mafkuraxonim, Ajoyib domla singari obrazlarda davr fojiasi tasvirlanadi.

Asar kulminatsiyasi ham Otashqalb shoirning o‘z xotira kechasida qatnashishi, o‘z fojiasiga sababchi bo‘lgan insonlarning bugun davr bir teskari aylanib uning eng yaqin kishilaridek ko‘rsatishiga guvoh bo‘lib o‘tirishi ammo bir og‘iz ham so‘zlay olmasligida va uni hech kim tanimasligida.

Qissadagi Musofir muxlis deya atalgan qahramonning tasviri diqqatni tortadi. Chunki: “...Qo‘lbola aravachada o‘tirgan bu odam nogirinlikning jamuljam timsoli edi. Tizzadan kesilgan oyoqlarining po‘ntig‘iga kirza etikning qo‘njan yasalgan qoplama kiyg‘izilgan, ikkala qo‘lining ham tirsagidan osti yo‘q- isqirt, yag‘iri chiqqan qora paxtalikning shalviragan yerlari yuqoriga qayrilib, bilakkacha chandib qo‘yilgan. Avji bahorning ilk oqshomi bo‘lishiga qaramasdan G‘aroyib muxlisning egnida qalin paxtaligu, boshida esgidan esgi quloqchin; soch-soqoli o‘sib ketgan qo‘sqi. Tashqi qiyofasidan bu yurtning fuqarosiga o‘xshamaydi, uzoqdan kelgan, juda uzoqdan-musofir. Ammo uning asov baroq qoshlari tagidan boqib turgan o‘tli ko‘zlarini ko‘rgan odam bir seskanib tushishi muqarrar! Va uni shubhasiz og‘ir bir savol o‘rtay boshlaydi: bu qadar tanish ko‘zlar kimniki?”

Bu yuqorida aytib o‘tilgan xotira kechasi nishonlanayotgan Otashqalb shoirning xuddi o‘zginasi faqat uni hech kim sezmaydi.

Anjumanning tantanali qismini ochib berish uchun so‘z Otashqalbning yoshlikdagi “eng yaqin do‘sti, safdoshi” Oqsaqol shoirga beriladi. Oqsaqol shoir odatdagi samimiy desa noinsoflikka o‘tadigan mujmal va chuchmal kirish so‘z boshlaydi. Oqsaqol shoir Otashqalbning fojeasiga o‘z hissasini qo‘shgan va bunga bosh -qosh bo‘lganlardan biri sanaladi. Mana qarib ellik yil o‘tib endi turli tuman so‘zlar bilan uni ko‘kka ko‘tarib, Otashqalbning mudhish o‘tmishi uchun qayg‘urib o‘tiribdi. Qissa davomida Oqsaqol shoirning vijdoni va qalbidagi riyokorlik, mansabparastlik tuyg‘ulari bir- biriga konflikt tarzda qo‘yiladi lekin alar oqibat nafs

butun umri davomidagidek ustun keladi. Umri oxirida ham haqiqat bilan yuzlasha olmaydi, bunga kuchi yetmaydi.

Asarda davr fojiasini o'zida mujassamlashtirgan yana bir obraz Mafkuraxonim obrazi. U sobiq sho'ro mafkurasini o'z manfaati yo'lida bayroq qilib olgan ayol. Shu bilan birga nafsini har narsadan ustun qo'yib, o'zligidan kechishga tayyor obraz hisoblanadi. "Mafkuraxonim deganimiz asli komsomoldan yetishib chiqqan keyinchalik talay yil poytaxt tumanlarining birida partiya qo'mitasiga yetakchilik qilgan, biroz muddat madaniyat vaziri ham bo'lgan, mana olti oydirki yana egarga o'rinishib, mafkura otining jilovidan tutgan edi. 45 yoshlar chamasidagi bu xotin so'zga nihoyatda chechan, bir pasda dunyoni ag'dar- to'ntar qilgudek faol tashkilotchi, oqni qora, qorani oq deb isbotlamoqqa ayniqsa mohir edi. U tagi oqsuyak xo'jalar avlodidan bo'lib, markischa-lenincha talimotga azboroyi mehri zo'rligidan nasl-nasabini inkor etadi. O'z ona-tilida yaxshi gapira olmaydigan ikkinchi ona-tili qilib olgan tilida binoyidek so'zlaydigan va bundan hech ham hijolat chekmaydigan bir so'z bilan aytganda mafkuraga yopishib olgan ayol edi". Mafkuraxonim anjumanga ham o'z tannoqliгинi namoyish qilganday odamni yalintira- yalintira tashrif buyurdi. Aslida u bunday davralarga mutlaqo begona.

Yozuvchi ushbu holatni quyidagi manzaralarda fosh qiladi. "Qani domlani o'zlari kelmadilarmi? – deb qolsa bo'ladimi! Hamma bir- biriga qaragan hamma hijolat. Sho'x, hozirjavob madaniyat vaziri, to'qsonlarni qoralab qolgan, qulog'i og'ir keksa rassomni ro'para qilib vaziyatni yumshatmoqchi bo'ladi. Domlani taniyman kamsomalda ishlaganimda mani chizganlar – dedi xushhollik bilan rassomga oppoq barmoqlarining uchini tutqazib – man yubilyarni so'ravomman ... Yana hamma jim bir -biriga qaragan, yana hamma hijolat. "U kishi yetib kelaolmadilar – dedi kimdir orqaroqdan jasorat ko'rsatib. Uzoqlarda, ha u uzoq sharqda". Yuqoridagi holat orqali yozuvchi istehzoli kulgu bilan birgalikda, "Mafkuraxonim" nomini yana bir bor tasniflaydi.

Anjumanda keyingi so'zga Ajoyib domla chiqadi. Domla obrazi orqali davr charxpalagiga moslab turli tomonlarga aylanadigan, hayot sinovlaridan turli qing'ir

yo'llar bilan o'tgan inson obrazi gavdalantiriladi. Quyida keltiriladigan tarif orqali bu so'z o'z tasdig'ini topadi. "Otashqalbning o'zidan ham bir necha yosh katta, ko'p qirg'inlarni ko'rgan hammasiga chap berib omon qolgan ya'ni kelgan baloga boshqasini ro'baro qilib, panasida jon saqlaydigan, zamon har aylanganida shamolning yelparragi qay tarafga yo'nalganini ilg'orlar qatori ilg'ab o'sha tarafga bayroq ko'tarib yugurgan, o'zining bu turlanishiga ilmiy va siyosiy asoslari hamisha tayyor benihoya makkor va maddoh bir zot edi". Domla ham boshqa safdoshlari singari Otashqalb shoirni maqtab uni ko'klarga ko'taradi. U ham Otashqalbning fojeasiga o'z hissasini qo'shganlardan biridir. Endi esa u o'z xarakteriga mos ravishda charxpalak aylanmasiga qarab o'zi ham ishonmaydigan maqtovlar va olqishlar aytib Otashqalbni ko'kka ko'taradi. Yozuvchi anjumanda keyingi o'rinlarda so'zga chiqqan Otashqalb shoirning jiyani Jiyanbeka shoirning birga o'qigan do'sti, go'yoki Otashqalbning yaxshi ko'rgan insonidek o'zini ko'rsatgan Mashuqaxonim yoki Alvastixonim deya atalgan obrazlar orqali yuqorida tariflangan personajlar xarakteri va ruhiyatini yanada to'laroq ochib berishga harakat qiladi. Shu o'rinda yozuvchi faqat zamon zayliga qarab turlanuvchi insonlarni emas, ularda qarama-qarsh yani konflikt tarzda shoirning chinakkam muxlislari, yoshligidagi do'sti temir yo'l xizmatchisi va Jasur shoir singari qahramonlar kiritiladi.

Otashqalbning yoshlikdan birga bolalar uyida katta bo'lgan do'sti temir yo'l xizmatchisi so'zga chiqqanda o'zi sezmaganda holda Ajoyib domlani fosh etadi. "Ajoyib domla hozir menimch boshqa Otashqalb shoir haqida gapirdi, men tanigan shoir boshqacharoq edi, haqiqiy mard, jasur, dovyurak yigit edi" deya do'stining haqiqiy fazilatlari haqida gapiradi. Anjuman so'ngida zo'rg'a navbat olib so'zga chiqqan Jasur shoir nutqida butun asar kulminatsiyasi va yechimi ifodalanadi. Jasur shoir savollari bilan zalda o'tirganlarni haqiqat bilan yuzlashishga majbur qiladi.

Jasur shoir anjuman bo'layotgan binoga va anjumanda o'tirgan bazi bir insonlarga sha'ma qilib "bu bino qurilishida Otashqalb shoir ham bo'lgandir, boshqalar singari binoning tagida yotgandi, ajabo binoning usti ham tomoshaxona, osti ham tomoshaxona, kecha senga hukm chiqqanlar bugun oshingga bakovul bo'lib

o‘tiribdi” – deya davrada o‘tirgan ikkiyuzlamachi, munofiq kimsalarga ishora qiladi. Otashqalbning fojeasiga hech kimni ochiq ayblamaydi. “Uning fojeasida bir-ikki odamnigina aybdor sanash kaltabinlik bo‘ladi. Bandasi ojiz jon esa shirin. Uni avvalo o‘sha muhit juvonmarg qilgan” – deya nutqini tamomlaydi shu bilan Otashqalb shoirning ham xotira kechasi o‘z nihoyasiga yetadi.

O‘sha kecha hamma o‘z o‘y hayollari bilan band bo‘ladi. Oqsaqol shoir to‘satdan vafot etadi. Yuqorida ta’kidlanganidek u umrining oxirida ham haqiqat bilan yuzlasha olmaydi. Oqsaqol shoir Musofir muxlisning ko‘zlaridan taniydi, uning Otashqalb shoir ekanligini sezadi lekin doimgidek qo‘rqoq va juratsizligi sababli unga ikki og‘iz so‘z aytolmay vafot etadi. Ajoyib domla, Mafkuraxonim singari insonlar esa hamon nafs yo‘lida bosh qotirib o‘tirishadi. Anjumanda chinakkam jasorat ko‘rsatgan Jasur shoir esa bugungi zafar zavqidan sarmast qattiq uyquda. Ertaga nima bo‘lishni bilmaydi. Ertadan boshlab unga barcha eshiklar yopiladi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda asar bir shaxs fojeasi orqali butun o‘tgan davrni tasvirlaydi. O‘z o‘rnida esa bunga sababchi bo‘lgan insonlar tashqaridan emas o‘z ichidan yetishib chiqqan munofiq, manfur kimsalardir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Erkin A‘zam. Shoirning to‘yi. www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. Erkin A‘zam. Ertalabki xayollar. www.ziyouz.com kutubxonasi.
3. Ўразбаева М. Аёл характери очишда бадий нутқнинг ўрни. GOLDEN BRAIN. 2023, 193-199 b.
4. Ўразбаева М. Ҳозирги ўзбек романчилигида аёл образи. Т., ILM ZIYO ZAKOVAT. 2023. 120b.